O'ZBEKISTON YOSHLAR ITTIFOQI

# YOSHLAR OVOZI

BIZ – KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

Молодежь Узбекистана

№ 8 (16414)
2021-YIL
24-MART,
CHORSHANBA

WWW.YOSHLAROVOZI.UZ | YOSHLAROVOZIUZ@MAIL.RU | @YOSHLAROVOZIUZ | @YOSHLAROVOZI

IJTIMOIY-SIYOSIY, IQTISODIY, ADABIY-BADIIY GAZETA

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING NAVRO'Z UMUMXALQ BAYRAMIGA BAG'ISHLANGAN TANTANALI MAROSIMDAGI TABRIK SO'ZI

Assalom-u alaykum, muhtaram vatandoshlar!

Qadrli do'stlar!

Siz, azizlarni, sizlar orqali ko'p millatli xalqimizni sharqona yangi yil – Navro'z bayrami bilan chin qalbimdan samimiy tabriklayman.

Nuroniy otaxon va onaxonlarimizga, hurmatli aka-uka, munis opa-singillarimizga, navqiron yoshlarimiz, suyukli farzandlarimizga, xorijdagi vatandoshlarimizga – butun el-yurtimizga o'zimning yuksak hurmat-ehtiromim va eng ezgu tilaklarimni izhor etaman.

Hammamiz orziqib va sog'inib kutadigan yangilanish va yasharish ayyomi – Navro'zi olam barchamizga muborak bo'lsin!

Buyuk Alisher Navoiy bobomiz aytganlaridek, har kunimiz Navro'z bo'lsin!

Hurmatli yurtdoshlar!

O'tgan yili pandemiya tufayli Navro'z bayramini har doimgidek katta tantana qilib, keng nishonlay olmagan edik. O'shanda, bu tashvishli kunlar, albatta, ortda qoladi, hali ko'p to'y-tomosha va sayillarni xalqimiz bilan birgalikda o'tkazamiz, deb ezgu niyat qilgan edik.

Bugun ana shu orzu va intilishlarimiz ro'yobga chiqmoqda. Go'zal va jonajon yurtimizda yana shodiyonalar, yana quvonchli kunlar boshlanmoqda.

Albatta, barchamiz yaxshi tushunamizki, butun dunyoda koronavirus balosi hali to'la bartaraf etilgani yo'q. Afsuski, u biz bilan birga, yonimizda yashamoqda.

Xalqimiz sog'lig'ini asrash yo'lida qanday sa'y-harakatlar va katta amaliy ishlar qilganimiz barchangizga yaxshi ma'lum. Endi shuncha mehnatimiz, ko'rgan chora-tadbirlarimiz bekorga ketmasligi uchun pandemiyaga qarshi kurashni bir lahza ham to'xtatmasligimiz lozim. O'zimiz va yaqinlarimizni himoya qilishimiz, beparvolik va beg'amlikka berilmasligimiz shart. Doimo hushyor va mas'uliyatli bo'lib yashashimiz, to'plagan tajribamizga tayanib, albatta, ehtiyotkorlik bilan tizimli ish olib borishimiz zarur.

Shundagina mehnatkash xalqimiz bilan ezgu maqsadlarimiz va katta rejalarimizni yangi kuch, yangi g'ayrat bilan davom ettira olamiz.

Bugun sizlarning nurli chehrangizni ko'rib, xalqimiz ham xuddi go'zal bahor faslidek kuch va qudratga to'lib borayotganiga yana bir bor amin bo'ldim.

Ko'klam nafasi yurtimiz uzra kezayotgan mana shunday tarovatli kunlarga sog'-omon yetkazgani uchun Yaratganga cheksiz shukronalar aytish biz uchun ham qarz, ham farzdir.

Aziz vatandoshlar!

Pandemiya boshlangan birinchi kunlarda men xalqimizga murojaat qilib, bu sinovdan yanada kuchli va qudratli bo'lib chiqamiz, deb ishonch bildirgan edim.

**Chindan ham, bizning kuchimiz – birlik va ahillikda; bizning qudratimiz – mehr-oqibat, o'zaro ko'mak va saxovatda; bizning yutug'imiz ertangi kunga bo'lgan yuksak ishonchimizda.**

Bu adolatli haqiqatni boshimizdan kechirgan sinovli kunlar yana bir bor isbotladi.

Mana shu mashaqqatli davr bizning bir-birimizga naqadar bog'liq va kerak ekanimizni yaqqol ko'rsatdi. Shuningdek, bir-birimizni asrab-avaylab, qadrlab yashashimiz hayotiy zarurat ekanini to'la namoyon etdi. Biz faqat birgalikda, hamjihatlikda buyuk ishlarga qodir ekanimizni pandemiya sinovlari yana bir karra tasdiqlab berdi, desam, sizlar ham bu fikrga qo'shilasizlar.

Albatta, koronavirus tufayli dunyoda ko'p narsa o'zgarmoqda. Lekin xalqimizning ona tabiatga, muqaddas zaminga muhabbati, azaliy qadriyatlarga ehtirom va sadoqati aslo o'zgargani yo'q. Aksincha, bunday oliyjanob xislatlarimiz yanada ziyoda bo'lmoqda, sayqal topmoqda.

Davomi 2-sahifada.




*Mitti jussasi bilan zildek qorni "yelka"lab bosh ko'targan boychechak zaminga kulib boqqanda, qaldirg'ochlar minglab chaqirim naridagi uyalarini izlab yo'l qaraganda inson tabiatning buyuk mo'jizasi bilan yuzlashayotganini doim ham his etavermaydi. Bir muddat o'tib esa, quyosh tikkaga kelib, kun va tun tenglashadi. Endi butun borliq jonlana boshlaydi. Qorong'i qish kechalaridan jon saqlab chiqqan insonlar tabiatning uyg'onishidan quvvat oladi.*

*Inson yaralibdiki, bu jarayon har yili takrorlanadi. Shu bois ham, Navro'z tiriklik, ezgu niyatlar hosilasi o'laroq bayram qilinadi. Bu yil ham yurtimizda yangilanish, yasharish bayrami – Navro'zi olam keng nishonlandi.*

## KARANTIN QOIDALARI AMALDA

– Bugungi kunda karantin qoidalarini o'tgan yilgidek qat'iy va keskin darajada qayta tiklashga biror asos yo'q. Sababi, kasallanish ko'rsatkichlari so'nggi 3 oy ichida past darajalarda bo'lib keldi, hozir birmuncha yuqori bo'lsa ham, bu karantin cheklovlarini kuchaytirishga asos bo'ladigan darajada emas. Negaki kasallanish asosan Toshkent hududida ko'proq qayd etilyapti, – deydi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati rahbari o'rinbosari Nurmat Otabekov. – Bir narsaga aniqlik kiritib olishimiz kerak – karantin hali bekor qilingani yo'q, eng muhim va birlamchi himoya usullari hamon amalda. Shunchaki, biz o'zimizni juda bo'sh qo'yib yubordik, koronavirus hamon yonimizda ekanini unutdik, o'zimizni go'yo kasallikdan qutulgandek tuta boshladik.

Davomi 4-sahifada.

# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING NAVRO'Z UMUMXALQ BAYRAMIGA BAG'ISHLANGAN TANTANALI MAROSIMDAGI TABRIK SO'ZI

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

Shu bois ham azaldan bahoriy uyg'onish va nafosat timsoli bo'lgan Navro'zi olam biz uchun tobora ardoqli bo'lib bormoqda.

Bu yilgi Navro'zning yana bir muhim jihati shundaki, u jonajon Vatanimiz mustaqilligining qutlug' 30 yillik bayrami tadbirlari o'tadigan yilga to'g'ri kelmoqda.

**Navro'z – chinakam xalq bayrami, milliy o'zligimiz ko'zgusi, ma'naviy va madaniy hayotimizning ajralmas qismidir.**

Ming yillar oldin ota-bobolarimiz bu ulug' ayyomni qanday pok niyat va yorug' umidlar bilan kutib olgan bo'lsalar, bugun ham xalqimiz mana shunday baland kayfiyat bilan Navro'zga peshvoz chiqmoqda.

Yam-yashil dalalar va gullagan bog'larda, maydon va xiyobonlarda, qishloq va ovullarda, mahalla va ko'chalarda Navro'zning dilbar taronalari – Yangi kun navolari yangramoqda. Qir-adirlarda mard o'g'lonlarimiz ko'pkari chopib, kurash tushmoqda. Keksa-yu yosh yurtdoshlarimiz sumalak to'la qozonlar atrofida o'yin-kulgular qilib, bahor ne'matlari va bayram quvonchini o'zaro baham ko'rmoqdalar.

Shunday shukuhli va betakror damlarda barchamiz tinch va osoyishta hayot hamda xotirjamlik qadrini yanada teranroq his etmoqdamiz.

Bugungi murodbaxsh va fayzli kunlarda mirishkor dehqon va fermerlarimiz ulkan niyat va rejalar bilan qadrdon dalasi sari yo'l olmoqda.

Fursatdan foydalanib, azm-u shijoatli bobodehqonlarimizni yangi mehnat mavsumi bilan samimiy qutlaymiz. Ushbu qutlug' bayram kunlarida joriy yilda ham dalalarda hosillarimiz mo'l va barakali, rizq-u nasibamiz yanada ziyoda bo'lsin, deb barchamiz duolar qilamiz.

Hurmatli bayram ishtirokchilari!

Navro'zning o'lmas ruhi va boqiy falsafasi biz bugun bunyod etayotgan yangi O'zbekiston g'oyasi bilan g'oyat uyg'un va hamohangdir.

Butun olam, yer-u ko'k uyg'onayotgan bu ajib faslda yurtimizdagi yangi Uyg'onish davri – Uchinchi Renessans orzusi qalblarimizga beqiyos kuch va ishonch olib kirmoqda.

**Xalqimizning fidokorona mehnati, qat'iy siyosiy irodamiz bilan biz keng ko'lamli islohotlarimizni bundan keyin ham jadal davom ettiramiz. Qanchalik qiyin bo'lmasin, el-yurtimiz manfaatini, jondan aziz farzandlarimiz kelajagini ta'minlashga xizmat qiladigan, tanlagan to'g'ri yo'limizdan hech qachon ortga qaytmaymiz.**

Ayni shu maqsadda mamlakatimizda o'nlab zamonaviy korxonalar, sanoat hududlari va klasterlar, "IT-park" va texnoparklar, transport-kommunikatsiya tarmoqlari, shinam uy-joylar, ko'rkam bog'cha va maktablar, oliy o'quv yurtlari, tibbiyot, madaniyat va sport maskanlari barpo etilmoqda. Shahar va qishloqlarimiz qiyofasi tobora chiroy ochib, jonajon diyorimiz yanada obod va go'zal bo'lib bormoqda.

Zero, Navro'zi olamning mazmun-mohiyatida insonni ulug'lash, uning qadri, izzat-hurmatini joyiga qo'yish kabi ezgu fazilatlar mujassamdir.

Yurtimizda aholining barcha qatlamlari, birinchi navbatda, xotin-qizlar va yoshlarning muammolarini hal etish, ularni bilim va kasb-hunarga o'rgatish, ish o'rinlari, daromad manbai, turar joylar bilan ta'minlashga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy yordam va ko'makka muhtoj, ko'ngli yarim insonlarga chinakam e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish doimiy faoliyatimiz mezoniga aylanmoqda.

Bu boradagi ishlarimiz "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"da mazmun va sifat jihatidan mutlaqo yangi bosqichga ko'tarilmoqda.

Mana shunday amaliy harakatlarimiz kelgusida yanada kengayib, **"Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik!"** degan olijanob maqsadimizga albatta yetamiz.

Hurmatli do'stlar!

Navro'z – inson va tabiatni asrab-avaylashga, tinchlik, do'st-u birodarlik va hamkorlik kabi umumbashariy qadriyatlarni e'zozlashga chorlaydigan ulug' bayramdir.

Ushbu qutlug' ayyomda turli nizo va adovatlar, gina-arazlar unutiladi, xalqlar o'rtasidagi o'zaro hurmat va ahillik tamoyillari yanada kuchayadi.

Ana shunday beqiyos fazilatlari tufayli Navro'z nafaqat mamlakatimiz, balki butun Sharq olamida zamonlar osha bezavol yashab kelmoqda. Shuning uchun ham Navro'z yurtimizda istiqomat qilayotgan 130 dan ziyod millat va elat vakillarini bir oiladek birlashtiradigan go'zal bayramga aylandi.

Sizlarga ma'lumki, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 21 mart – Xalqaro Navro'z kuni deb e'lon qilinib, u YUNESKOning Insoniyat nomoddiy madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan. Ushbu sananing jahon miqyosida keng nishonlanishi uning xalqaro nufuzi va ahamiyati tobora yuksalib borayotganidan dalolat beradi.

Mana shu nurafshon ayyomda uzoq-yaqin barcha davlatlarning xalqlariga, xorijiy do'st va hamkorlarimizga ezgu tabrik va salomlarimizni yo'llab, ularga tinchlik va ravnaq tilaymiz.

Qadrli otaxon va onaxonlar!

Muhtarama opa-singillar!

Hurmatli aka-ukalar!

Aziz farzandlarim – navqiron yoshlarimiz!

Qadimiy va go'zal bayramimiz – Navro'zi olam bilan barchangizni yana bir bor chin dildan tabriklayman.

Sharqona Yangi yilimiz har bir xonadonga, jonajon O'zbekistonimizga tinchlik-xotirjamlik, sog'liq-omonlik, baxt-u saodat hamda fayz-u baraka olib kelsin!

Ilohim, jamiki ulug'vor maqsadlarimiz, yaxshi niyat va ulkan rejalarimiz ro'yobga chiqsin!

Vatanimiz yanada obod, xalqimiz hayoti hamisha farovon bo'lsin!

Azizlarim, Navro'zi olam barchamizga, butun xalqimizga qutlug' va muborak bo'lsin!

# Navro'z sayli
## QALBLARGA EZGULIK ULASHDI

***Uch ming yildan ziyod tarixga ega Sharqona yangi yil – Navro'zi olam yangilanish va yasharish fasli bahor tarovatini qalblarga ulashib, barchada yangi va farovon kunlarga umid hamda ishonch uyg'otishi bilan hamisha qadrlidir.***

***Joylarda Navro'z sayillari hamon davom etmoqda. O'zbekiston xalqaro islom akademiyasida ham "Har kuningiz bo'lsin Navro'z!" shiori ostida bayram sayli bo'lib o'tdi.***

Eng avvalo, Akademiyada ko'p yillar faoliyat yuritgan faxriy ustozlar xonadoniga borilib, bayram tuhfalari va Navro'z taomi — sumalak ulashilib, barchaga mehr-e'tibor ko'rsatildi.

Yurtimiz ko'p millatli, turli din vakillari yashaydigan bag'rikeng diyor sanaladi. Ezgulik va bunyodkorlik qadriyatlarini targ'ib etuvchi Navro'z bayrami yurtimizda istiqomat qiluvchi turli millat vakillarining ham e'tiborida bo'ldi.

Tadbirga yurtimizdagi bir qator diniy konfessiya vakillari, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita raisining birinchi o'rinbosari Muzaffar Kamilov, O'zbekiston xalq artisti, O'zbek milliy akademik drama teatri direktori Yodgor Sa'diyev, Akademiya professor-o'qituvchilari va talaba-yoshlar ishtirok etdi. Bayram saylini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Jamoat va diniy tashkilotlar bilan hamkorlik masalalari bo'yicha maslahatchisi, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi rektori Rustam Sobirovich Qosimov tabrik so'zi bilan ochib berdi.

Mehmonlarga Navro'z bayramining tarixi, uning boy ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati haqida ma'lumot berildi. Doshqozonlarda qaynayotgan sumalak, bayramona muhit konfessiya vakillarida katta taassurot uyg'otdi.

– Barchangizni buyuk va ajoyib Navro'z bayrami bilan tabriklayman, – deydi Toshkentdagi nemis yevangel lyuteranlar cherkovi jamoasi rahbari, pastor Lyudmila Shmidt. – Navro'z insonlar o'rtasidagi muloqotning jonlanishiga, birgalikda taom tayyorlanishi esa iliq munosabatlarning o'rnatilishiga sabab bo'lmoqda. O'zbekiston xalqaro islom akademiyasida tashkil etilgan bu tadbir orqali men ham umrimda birinchi marta sumalak pishirish jarayonida ishtirok etishga musharraf bo'ldim va bu meni juda quvontirdi. Men chin yurakdan barchangizga qalb xotirjamligiga erishishingizni tilayman. O'tayotgan har kuningiz baxtiyor va muvaffaqiyatli bo'lishini tilab qolaman.

Bayramda yana bir ezgu tashabbus qanot yozdi: iste'dodli, ijodkor talabalar o'rtasida "Nazmiy asarlar" tanlovi o'tkazilib, saralangan she'rlar kitob holida chop etilgani yoshlarga katta tuhfa bo'ldi. Bundan tashqari, asosiy bayram tadbirlari oldidan fakultetlar o'rtasida devoriy gazetalar tanlovi, shaxmat-shashka, kurash, stol tennisi, badminton, arqon tortish sport turlari bo'yicha musobaqalar o'tkazilgani bayram shukuhiga shukuh qo'shdi.



Marosimda yurtimizda istiqomat qiluvchi turli millat va elat vakillarining Navro'zni nishonlashga oid urf-odatlari, an'ana va qadriyatlarni aks ettirgan sahna ko'rinishlari, she'riy-musiqiy chiqishlar namoyish etildi.

Ko'tarinki kayfiyatda o'tgan tadbirda xalq o'yinlari (kurash, arqon tortish, tosh ko'tarish) hamda "Varrak shou" tashkil etildi. Bahoriy taomlar tanlovi, sumalak sayli, osh tayyorlash musobaqalari o'tkazildi. G'olib va sovrindorlarga mutasaddilar tomonidan esdalik sovg'alari topshirildi.

Milliy atlas va adras liboslar, xalq hunarmandchilik mahsulotlari ko'rgazmasi namoyish etildi. Akademiya talabalarining Navro'z va milliy urf-odatlarga oid badiiy chiqishlari, "Quvnoqlar va zukkolar" musobaqasi, xalqimizning o'ziga xos urf-odatlari aks etgan sahna ko'rinishlari, respublika Milliy-madaniy markazlari ansambllarining badiiy chiqishlari bayram tadbiriga fayz bag'ishladi. "Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari" kafedrasi o'tkazgan "Kibersport" musobaqasi ham tomoshabinlar e'tiborini qozondi.

**Muxbirimiz**

*Abdulla Oripov tavalludining 80 yilligi*

# Abdulla Oripov siymosi

***Oramizda Abdulla Oripov yo‘q. Mangu hayot uning yo‘qligini bildirmaydi: tiriklar barcha davralarda, O‘zbekistonning har qarich tuprog‘ida, qayerda maysalar ungan bo‘lsa, hatto toshlar, sahrolar, sarbaland tog‘lar, daryolar-u jilg‘alar hayot nomini aytib gullayotgan bo‘lsa, o‘sha yerlarda Abdulla Oripov eslanadi, she'rlari aytiladi, umri jovidoni naqllari so‘ylanadi, qalblardan uning jarangos so‘zlari toshadi.***

***Toshqin o‘zbek daryosi edi-da Abdulla Oripov. G‘alayonli, tug‘yonli o‘zbek dengizi edi-da Abdulla Oripov! Ruh abadiy, deb mana shunga aytadilar!***



O'tgan yoz bo'yi, kuz chog'lari do'stim, birodarim, zukko adabiyotchi Doniyor Begimqulov keltirgan Abdulla Oripov asarlarining sakkizinchi jildini mutolaa qildim. Bu ko'k muqovali kitobga ulug' shoirning 2013-2016-yillarda dunyo yuzini ko'rgan she'rlari jamlangan. Afsuski, bu sarbaland tomni shoirning o'zi ko'rolmadi.

Ammo sal avvalroq, 2015-yilda "O'zbekiston" nashriyoti shoirning 2015-yilda bitgan she'rlarini "Everest va ummon", degan nom ostida tuhfa qilgandi. Bu kitobni o'qib, Abdulla Oripov she'riyati tamomila yangi cho'qqilarni egallaganini, dunyo miqyosi mavzulariga ko'ra ham, ularning talqiniga ko'ra ham chiqqanini, yangi badiiyat chegaralariga yetib borgani, qalb shu yangi badiiyat marafonlarini egallash uchun tamomila va oxirigacha — to so'nggi uchqunigacha yonganini ko'rgan, ijodkor fenomeni qudrati qanchalar bo'lishidan lol qolgan, larzaga tushgan edik.

"Everest va ummon"ni Abdullaning o'zi ko'rdi. O'zi solgan sarhadlari ufqlar osha ketgan masarrat bog'iga kirdi. Bu kitobida Abdulla Oripov dunyoni chuqur tushungan orif bir zot singari kinoya, istehzo, piching, ishora kabi she'riyat usullaridan odam va dunyoning shu zamondagi falsafasini yaratdi.

Balki bu hajv dunyosi juda achchiqdir va ba'zan juda hazm qilish og'irdir, ammo shu oson bo'lmagan olamning har bir fikrlovchi inson boshidan kechirib turgan falsafasidir. Biz hali bu o'ziga xos yangi she'riyat olamining ichki mohiyati va yo'nalishiga, ma'no va maqsadlariga yetarlicha kirib borolgan, shoir orzu qilganicha uning she'rlari sir-sinoatlari bilan oshno bo'lolgan, uni kashf qilolgan emasmiz. Buni ro'yrost tan olmoq kerak. O'qib hayratimizni ichimizga solib ketaverganmiz, har holda.

Olam ishlarining barcha-barcha qirralarida ziddiyat, ziddiyat va yana ziddiyat ko'rdi: ko'rdigina emas, tuydi, xasta yurak bilan emas, o'rtangan, iztiroblarda kuygan yurak bilan tuydi. Abdullaning shoir yuragi xastalikni aslo tan olmadi, xastalikka bo'yin bermadi, uning zarbalari ostida uvol bo'lib, tirqirab ketmadi.

Juda kuchli yurak edi Abdullaning shoir yuragi! Hayotining oxirgi yillarida dunyoning eng sarbaland cho'qqisi Everest — Jomolungma haqida, dunyoning eng hududsiz bahri muhiti Atlantika haqida she'riy satrlarda o'yga botishi bejiz emasdi: o'zbek shoiri bularni o'zi ko'rdi, o'zi beqiyos tuyg'ulari bilan his qildi. Abdullaning ilk she'rlariyoq iztiroblar va ziddiyatlarga begona emasdi. Bular insonga tug'ilishdanoq, hatto ona qursog'idanoq fikrlovchi insonga xos: ular tabiat va koinotdan insonga ato etilmish.

Mana, hozir "NASA" fazo suratlaridan odamzodga ma'lum bo'layotir: Yupiterdan tortib Marsgacha va Quyosh atrofidagi barcha Yer-Zamindan tortib sayyoralarda hayot qaynab yotadi: ularda bir zum bo'lsin sukut-u sukunat yo'q! Koinot tinimsiz yaratilish jarayoni va jarayon qiynoqlarida!

Mana shu koinotdan kelayotgan qiynoqlarni adabiyot ziddiyati va iztirob shiddatlarida ifodalaydi, tasvirlaydi. Adabiy san'atlarda bunga qadim zamonlar, Vatvot zamonlaridan beri tazod, deb nom berilgan.

Navoiyning "Base, issig'-sovug' ko'rdim zamonda, Base, achchig'-chuchuk toptim jahonda" tazodini ko'rib, Navoiyni olam ro'parasida zamonni qanday bilganini tasavvur qilish mumkin. Cheksiz olam ziddiyatlari faqat ichkari-tashqari, yaqin-yiroq kabi minglab so'zlardagina emas, balki fikrlash tarzida, ayniqsa, shoirona fikrlash tarzida olam haqiqatlarining mo'jizalarini dunyoga obrazlar vositasida keltiradi.

Abdullaning keyingi davr she'rlarida ziddiyatli fikrlashi o'zining yuksak hayotiy cho'qqilariga ko'tarildi. Shoir ziddiyatli fikrlashning ba'zan juda go'zal me'yorlari, mutanosibliklarini, uyg'unliklarini topdi, ba'zan me'yorlardan, mutanosibliklardan mubolag'a bilan oshdi.

Ziddiyatli fikrlashning bir qudrati shundaki, u odamning esida muhrlanib qoladi, odamga juda kuchli ta'sir qiladi va unda g'alayon qo'zg'aydi. Ba'zan me'yor buzilganda, o'quvchi "Iy-ye, bu haqiqat emas-ku! Bu boshqacha-ku! Bunga ishonish qiyin!" – deydi.

Abdullaning shoirona qudrati ifodalangan, 2015 yilda yozilgan "Yangi asr manzarasi", degan she'riga murojaat etaylik:

**Hamma bir-biriga**
**boqar shukuhsiz,**
**Tegrasin ko‘rmaydi,**
**yumuqdir ko‘zi.**
**Ulkan yaylovdagi qalbsiz**
**va ruhsiz,**
**To‘dadan iborat go‘yo**
**yer yuzi…**

Bu shoirni chulg'ab olgan oniy bir hayajon, oniy bir tuyg'uning ifodasimi? She'r ijodida, she'r yaratilishida oniylik — oniy kayfiyat — bir zumda shoir qalbini chulg'ab olib, uning ustidan hukmronlik qiladigan kayfiyatning o'rni va ahamiyati beqiyos!

Shoir yer yuzida endilikda alam va zabunlik sasi hukmron bo'lib qoldi va undan endi omonlik yo'q, deb xulosa chiqaradi.

Ayniqsa, Shomda, Afg'onda, Yamanda yuz berayotgan dahshatli xunrezliklar, vayronagarchiliklarni ko'rib, mushohada qilib:

**Cherkov qo‘ng‘irog‘in**
**jarangi tinmas,**
**har tong minoradan**
**taralar azon.**
**Ularning borligi lekin**
**bilinmas,**
**Bepoyon yaylovda**
**kezadi inson,**

degan xulosaga keladi. Ehtimol, bu fikrga ba'zilar qo'shilmasligi mumkin. Lekin bepoyon yaylov manzarasi, hamma-hammaning yalpi tarzda bir-biriga shukuhsiz boqishi – bular oxir zamon manzaralarimi, hozirgi zamon odamlari shunday sezadilarmi? Bularni hozirgi zamonning haqiqati, deb biladilarmi?

Yoki bu shoirning faqat oniy – biz individual deymiz, – kayfiyati va o'sha ondagi o'rtanishlari, cheksiz iztiroblari natijasimi? Atomlar, raketalar, yangidan-yangi vahshat qurol-yarog'lari insoniyat boshiga solayotgan mislsiz qutqumi? Gar bu o'sha qutqu bo'lsa, shoir uni apokalipsis manzarasiday ta'sirli haqiqati bilan ifodalab berolgan.

Mirzo Ulug'bekning tarix kitobida yurt tarixiga fojialar bostirib kirib kelayotganini ulug' olim va ulug' shoir muarrix kabi ifodalab, "Vahm chumchuqlari chirqilladi", deydi. Abdulla Oripovning keyingi davr ikki salmoqli kitobda jamlangan she'riyatining mundarijasi va mavzu yo'nalishlarida mana shu iztirobli, o'ta ziddiyatli hol hokim ekanini kuzatish mumkin…

Shoir yana yozadi: "Asrlar qa'ridan kelgan bir sasdir: Umrimda hech qachon haq bo'lmaganman"…

Qarang, ulug' shoir "haq bo'lgan emasman", deb bir haqiqatini ifodalamoqda va ushbu haqiqatning tagida farosatli o'quvchi shoirning insoniy kechinmalarida haqligini anglamoqda. Mana bular hammasi tom ma'noda shoirona fikrlash tazodlari – umuminsoniyatga xos ziddiyatlardir.

Abdulla Oripovning keyingi yillar she'riyatiga yer yuzidagi insoniyatni qattiq chirmab olgan, benihoya chuqur tomir otib borayotgan ziddiyatlarning natijasi, hosilasi deb qaramoq joiz.

Shoir nazdida yer yuzi insof va vijdon tinimsiz, ammo sekin faryod chekayotgan maydon – poyonsiz yaylovga aylana bormoqda. Shunday sharoitda o'zini goho ovozi yuraklarni o'rtagan tanho qushga mengzaydi va o'z hayotiga qiyos qiladi:

**“O‘sha qushdek yashadim**
**cho‘chib,**
**Sizni xavfdan ayladim ogoh,**
**Ketolmadim ko‘kka ham**
**uchib,**
**Topolmadim yerda ham**
**panoh”.**

Bu kabi dardli so'zlar, tanqid uchqunlari charsillagan fikrlarni shoir 1991-yildagi bir suhbatida: "Men uchun eng muhimi, she'riyatim xalqim uchun yashab qoladimi, yo'qmi, gap shunda. Iztirob yuragimda erimas tosh bo'lib qoldi", deb aytgan edi. U ro'yrost ochiqdan-ochiq aytgan, ko'p ishoralar qilgan va ochiq gaplarida ham, ishoralarida ham ulug' shoirlik bashoratlari mujassam edi. Xondamir "Makorim ul-axloq" kitobida "Yozuvchilik ishi cheksiz oliyjanoblik namunasidir", deydi.

Abdulla Oripovning ijodi, she'riyati mana shunday ezgulik va oliyjanobliklar tug'yonlaridan bino bo'lgan edi. Xalqimiz uning bezovta ruhini – o'lmas ijod ruhi, deb alqagay va ozodlikka, ogohlikka chaqirgan ruh, deb tanigay!

**Ibrohim G‘AFUROV,**
**O‘zbekiston Respublikasi**
**san'at arbobi.**
**O‘zA**

TOSHOYNA

# YANGI KUN...
## va hech qachon yangilanmaydigan biz!

*Navro‘z... Ziyovuddin shaharchasida (Paxtachi tumani markazi) tobora urchiyotgan daydi itlarda tinim bo‘lgandir-u, telefonimda tinim bo‘lmadi, bir haftadirki: "...maktabimizda tadbir o‘tkazuvdik, bayramga, matbuotda chiqarasizlarmi?"; "...falon mahalla deputatiman, bayramdi nishonlovdik, shuni endi gazitga bersak?"; "...pismadon to‘yxonada bazm bo‘lyapti, yoritgani kelasizlarmi?.."*

Xo‘p, o‘qituvchilarni-ku tushunaman. Bechoralardan darsni emas, qog‘ozbozlikni ko‘proq so‘rashsa, netishsin. Ammo deputatlar, sektor rahbarlarini... Ularniyam tushunsa bo‘lar-ku, oqlab bo‘lmaydi! Xalqning sanoqsiz muammosi turganda, bir pulga qimmat tadbirlar-u bazmbozlikdan nariga o‘tolmaslikni qanday oqlash mumkin, axir?! Shularga ketgan pulni loaqal yo‘llarga sarflashganda edimi, o‘-o‘, tumanimizdagi tuyaning o‘rkachiday bo‘lib yotgan ko‘chalar allaqachon rahbariyatimizning yillik hisobotidek sip-silliq bo‘lardi-qolardi.

Navro‘z... Maktabda o‘qiyotganimizda insho yozdirishardi, u haqida. Somoni chiqib yotgan, arzongarov o‘n ikki varaq daftarlarimizni to‘ldirib-to‘ldirib yozardik. Hammasi umumiy gaplar bo‘lardi: Navro‘zda urushganlar yarashadi, Navro‘zda daraxtlar oqlanadi, Navro‘zda sumalak pishiriladi... Barchaga ho‘kizning qashqasiday ma'lum shu gaplarni favqulodda ilhom ila yozib, yana "besh" baho iddao qilardik. Yillar shunday o‘tdi. Maktab bizdan, biz maktabdan qutulgan kunlarimizning birida jaydari bir jo‘ram aytib qoluvdi: "...umrimda bir marta insho yozganman. Navro‘z to‘g‘risida edi. Kallamga kelganini yozuvdim. Daptarimdi ochi-ib, o‘ylovdim, shu Navro‘zda har yili biqinimizdagi hamsoyamiz bilan urushib qolardik, nimagadir. Ko‘p urushganmiz-da. Hali tovug‘imiz o‘tib ketardi ularnikiga, hali ularning moli biznikiga o‘tib ketardi... O‘rtamizda devor yo‘g‘idi-da... Ana shuni yozuvdim inshoga. Mallim bir maydon gapiruvdi, o‘ziyam, turg‘izivop meni... Shu-shu insho-pinsho yozmay ketdim"...

Navro‘z... Ko‘chamizda bayram qilardik, qo‘shnilar bilan qo‘shilishib. Oldin so‘zi o‘tar kimdir uyma-uy yurib "yig‘diyig‘di" qip chiqardi. So‘g‘in shu yig‘ilgan pulga qozon osilardi, dasturxon tuzalardi... Biz, bolalarga Xudo berardi, ayniqsa: kurash, poyga, quvlashmachoq, lanka, "daga-daga"... Kattalar ham qolishmasdi: yahudiylardan yuqtirgan "hunar"larimizni – xo‘roz urishtirish, qo‘chqor urishtirishni qizdirishardi... Oxirgi o‘n yil ichi Navro‘zni ko‘chada nishonladikmi-yo‘qmi, eslolmadim. Bugun o‘zbekka bayrammas, bahona kerak – araqni to‘yib ichib, qo‘chqorday o‘zaro "kalla qo‘yishib", xo‘rozday qichqirishi uchun! Qadahlarini cho‘qishtirayotganda, to tildan qolguncha takrorlab turgani "qadahso‘z"ga mavzu bo‘lsa bas: "...Navro‘z yaxshi kelsin, oldik!", "...Yangi yilda yetmagan niyatlarimizga yetaylik, qani!", "...mustaqilligimiz abadiy bo‘lsin, hq-q!".

Navro‘z... Bu yil ham u menga tatimaydi, chog‘i. Mana, hozir, yarim tunda ishxonamda o‘tirib, shuni yozyapman-u xayolim tezroq chiroqni o‘chirib, yotishda. Yo‘q, charchaganim uchungina emas – Toshpo‘latning uyqusini buzayotganim bois!.. Otasidan, oilasidan, oxiri yo‘q ishlardan... qochib keldi yana. Kamiga velosipeddan yiqilibdi. Qo‘lining payi cho‘zilganmi, og‘riyapti-da-og‘riyapti, deya-deya uxlab qoldi. Poliklinikaga borgan ekan, tayinli gap aytishmapti. Kasalxonaga bor, deyishipti. Ko‘rdim, ahvoli juda kasalxonaga borgulikmas. Dorixonadan doka, paxta, spirt, maz opkelib, o‘zimizcha xonaki muolaja qildik. Sal-pal og‘rig‘i bosilganday bo‘ldi-yu... Ertalab qaraymiz-da. Bo‘lmasa, kasalxona qochib ketgani yo‘q.

Juda sodda, beg‘ubor yigit – Toshpo‘lat. 17 yashar. Yog‘ochga o‘ygan naqshlariga qarab to‘ymaysan. Qo‘li gul! Faqat shu naqsh chizishdan boshqasiga qiziqmadi-qiziqmadi. Otasi so‘kadi, momosi tergaydi, tengqo‘rlari mazax qiladi... u hamon naqsh solgani solgan. Birgina ayasi xayrixoh. Yolg‘iz o‘g‘lining yetuk naqqosh bo‘lishiga ishonadi, ishontiradi. Uyam yurak xastaligi sabab anchadan beri Toshkentda davolanyapti. Oqibatda, o‘z naqshlari bilan yakka qolgan Toshpo‘lat imdod izlab, goh masjidga, goh prokuraturaga, goh tahririyatga... qatnayveradi-qatnayveradi.

Kecha ham asr vaqtlarida hovliqqan ko‘yi xonamga kirib keldi. Kun bo‘yi nimalar qilganini lahzalarda aytib tashladi: otasi bilan kartishka ekipti tushgacha, keyin masjidga boripti, keyin qabristonga o‘tib, rahmatli buvasining qabrini obodlapti, keyin vilosipeddan yiqilipti... Kelishidan ikki soatcha ilgari otasi menga telefon qilib, uni kutib o‘tirganini, kartishkaning qolganini ekishi kerakligini aytuvdi. Toshpo‘latni ro‘paramga o‘tirg‘izib, ota shaxsi bobida uzoq so‘zladim. Aloha, otasiga qo‘ng‘iroq qilib, avvalo, kechirim so‘raydigan, so‘ng "Sizni juda yaxshi ko‘raman, ota!" deydigan, indallo bu kech ishxonamda qolishga izn o‘tinadigan bo‘ldi. Mehr bilan bir kunjakka qo‘nqayib, otasiga sim qoqdi. Otasi telefonni olgan zahoti uning qayerdaligini ilkis so‘radi. Toshpo‘lat qo‘nimgohini aytishi hamono otasi: "...ona-angdi seni... Uyga qa-ayt, hozirdi o‘zida-a!.. Eshitdingma...", – deb shunchalar nafrat bilan bo‘kirib berdiki... Toshpo‘lat menga nochor mo‘ltiradi: "...endi kechirim so‘ramoqchiydim, aka..?". Keyin yig‘ladi. Ish stolimni mushtlab, silkinib-silkinib yig‘ladi.

Ishxonada qoldik. To‘rtta stulni birlashtirib, "xobgoh" hozirladi-da, uxlashga yotdi.

Ha, u buguncha kaltak yemadi. Biroq yana bir soatdan so‘ng tong yorishadi – Navro‘z tongi. Birga-birga nonushtayam qilarmiz. Va uy-uyimizga ketamiz. Meni-ku uyimda yaqinlarim kutyapti, Toshpo‘latni-chi?.. Bolaxonador so‘kishlar, shapaloq, tepki, kaltak... kutyapti. Ayblarimi? Mo‘lgina: "...bilib olgani naqqoshlik!"; "...bir oyda nechchi hafta borligini bilmaydi!"; "...bir santimetr nechchi detsimetrligini aytib berolmaydi!"; "...ro‘zg‘orga foydasi tegmaydi!".

Yaxshi, uringlar! Ayab o‘tirmanglar! Shusizam majruh o‘g‘lingizni endi tanasiyam mayib bo‘lguncha uring! Naqqoshlikka qiziqmay qolguncha uring! Bir oyda nechchi hafta borligini bilguncha uring! Bir santimetr nechchi detsimetrligini aytib berolguncha uring! Ro‘zg‘orga foydasi tekkuncha uring!.. Qisqasi, o‘zingizga o‘xshab qolguncha uring! Naqqoshligam ish bo‘ptimi? Ana, moldan foyda, tomorqadan foyda, ketmondan foyda!..

Navro‘z... Sen sabab ne-echtasi araqqa bo‘kib keladi uyiga. Va yana ne-echta bolalar uyqusiz, yurak hovuchlab chiqadi. Va yana ne-echta ayollarning ko‘zi ko‘karadi... Iloj qancha, mayli, kelaver, o‘zimiz senga peshvoz chiqamiz. Mezbonlaring o‘sha-o‘sha: "Yangi O‘zbekiston", "Yangi kun"... va hech qachon yangilanmaydigan biz!..

**Sherbek BOBOQULOV**

# KARANTIN QOIDALARI AMALDA

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

Darhaqiqat, ayni paytda mamlakatimizda koronavirus bilan kunlik kasallanishlar soni yuzdan oshib, ayrim hududlarda muayyan cheklovlar o‘rnatildi. Xususan, Toshkent shahridagi uchta tumanda maktab ta'limi onlayn tartibga o‘tkazildi. Bu chora ko‘pchilikni xushyor torttirib, karantin cheklovlari yana kuchayadi, degan vahimani ham o‘yg‘otdi. Ammo bugungi kunda yurtimizning boshqa hududlarida epidemiologik vaziyat barqaror. Barcha o‘quv muassasalarida ta'lim jarayoni odatdagidek olib borilmoqda.

Ta'lim muassasalaridagi mavjud vaziyatni hamda karantin qoidalariga qay darajada rioya etilayotganini o‘rganish maqsadida Qarshi davlat universitetida bo‘ldik.

Mutasaddilarning ma'lumot berishicha, bugungi kunda universitetda 8 fakultet, 74 yo‘nalish mavjud bo‘lib, 16 ming 600 nafarga yaqin talaba tahsil olmoqda. Barcha binolarda o‘qituvchi va talabalarning karantin qoidalariga rioya etishi nazoratga olingan. Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik markazi xodimlari ko‘magida barcha binolar tegishli tartibda dizinfeksiya qilingan.

– Bizning fakultetimizda 2 ming 1 yuz nafardan ziyod talaba tahsil oladi, – deydi Qarshi davlat universiteti xorijiy tillar fakulteti dekanining yoshlar bilan ishlash bo‘yicha o‘rinbosari Nurbek Suyarov. – Universitet hududiga, barcha binolar va xonalarga kirish joyiga karantin qoidalariga oid bannerlar, ko‘rgazmali vositalar ilingan. Doimo niqobda yurish, o‘zaro ijtimoiy masofa saqlash, qo‘l berib so‘rashmaslik yuzasidan tushuntirish ishlarini olib boryapmiz. Internetdagi sahifamizda karantin talablarini aks ettirgan barcha huquqiy-me'yoriy hujjatlar, bugungi kundagi epidemiologik vaziyat haqida tezkor ma'lumotlar joylab borilyapti. Dars vaqtida xonalar nazorati o‘qituvchilar zimmasiga yuklatilgan.



Binolarga kiraverishda nazorat punktlari o‘rnatilgan bo‘lib, o‘qituvchi-professorlar hamda muassasa mehmonlarining tana haroratini o‘lchash, qo‘llarini antiseptik vositalarda zararsizlantirish tizimi yo‘lga qo‘yilgan. Isitma, yo‘tal, holsizlik va kasallikning boshqa belgilari aniqlanganda, universitet qoshida tashkil etilgan shtabga murojaat qilish zarurligi tushuntirilib, telefon raqamlari berilgan.

Universitet tasarrufidagi 7 ta talabalar turar joyida 1164 nafar talaba istiqomat qilmoqda. Har bir yotoqxonaga bir nafardan pedagog-tarbiyachi, tibbiyot hamshirasi biriktirilgan. Tibbiy-sanitariya holatini nazorat qilish ishlariga o‘qituvchilarni emas, balki mutaxassislarni biriktirish maqsadida Qarshi shahar tibbiyot birlashmasiga tegishli tartibda so‘rov yuborilgan.

– Ayni paytda yotoqxonalarimizga 2 nafar tibbiyot hamshirasi biriktirilgan. Shahar tibbiyot birlashmasidan mutaxassislar ajratilsa, hamma yotoqxonalarda mutaxassislar navbatchiligi tashkil etiladi, – deydi Qarshi davlat universiteti talabalar shaharchasi direktori Norbek Pardaqulov. – Yotoqxonalarga kiraverishda talabalarning tana harorati o‘lchanadi, qo‘llari antiseptik vositada zararsizlantiriladi. Talabalardan niqob taqib yurishni talab qilyapmiz, zarur hollarda ularga niqob berilyapti. Shuningdek, kasallik belgilari aniqlangan talabalarni yakka holatda saqlash maqsadida har bir binoda bittadan izolyatsiya xonasi tashkil etilgan.

O‘rnatilgan tartib, targ‘ibot-tashviqot ishlari ta'lim muassasasida darslarning bir maromda, samarali tashkil etilishiga xizmat qilmoqda.

**G‘olib ABDULLAYEV**




Мы продолжаем рассказывать о людях, чьих судеб коснулся волшебный свет Навруза. Быть названным в честь весеннего Нового года – особое благословение, но и большая ответственность, ведь нужно соответствовать высокой планке доброты и нравственности, которую задает этот чудесный праздник.

# Праздник – в имени моем!

## А в небесах парит мой змей

**Ботиржон НАВРУЗОВ, начальник отдела УЧС г.Ташкента:**

– Семь наших поколений имели «вкусную» профессию, от отца к сыну передавая секреты приготовления нишалды, парварды и других сладостей, без которых трудно представить Навруз. Кстати, у моего дедушки-фронтовика, который дошел до Берлина, а потом сражался в Японии, в военном билете в графе «Профессия» так и записано: «Кондитер». У нас самаркандские корни, однако, по семейным преданиям, основание рода заложено на земле Шахрисабза. Якобы древнейшие предки кондитеров Наврузовых участвовали в походах Амира Темура.

Размышляя об истории рода, предполагаю: кроме ратного искусства, этим воинам приходилось заниматься кухней. Часто Навруз заставал войско в походах, тогда готовилось праздничное угощение. В мирное время уставшие от битв мужчины переключились на ремесло, дарящее радость. Сам люблю и могу хорошо готовить. Это мое первое хобби. Отец был геологом, много времени проводил в экспедициях и тоже был прекрасным кулинаром. Наверное, гены себя проявляют.

В детстве завороженно следил за дорбозами-канатоходцами, эквилибристами, которые приезжали в весенний Новый год в райцентр. Мы с братом ждали их с нетерпением. На ярмарке можно было в удовольствие потратить деньги, выданные отцом по случаю праздника. Его тогда не отмечали официально, но каждый знал: Навруз наступил.

А как здорово было мастерить самому воздушного змея! Это сейчас их продают любых размеров и расцветок – глаза у детворы разбегаются. Товара много, разнообразие налицо, а очарование и сказка уже не те. Когда сам конструируешь, украшаешь, пытаешься перещеголять друзей своим искусством, радости от полета гораздо больше. Я, например, «прореживал» солнцезащитную занавеску типа жалюзи из камыша. Камышинки – необходимый стройматериал для летательного аппарата. В дни запуска мы с приятелями становились главными покупателями ниток в магазине, выбирая самые прочные – суровые. Какие состязания устраивали! Ветер – лучший друг, ведь от него зависело, насколько высоко взовьется змей.

Успевали и набегаться, и уроки выучить, и в огороде поработать. И в генеральной уборке были первыми помощниками. В празднике еще лучше понимаешь смысл пословицы «Делу – время, потехе – час».



Еще со мной всегда Навруз, который несколько лет назад сделал счастливым моего друга, отца трех дочерей, мечтающего о наследнике. Его, к сожалению, забрал коронавирус. Звонит 21 марта, голос звенит от радости: «Ботир! У меня сын родился. Наврузом назову. В честь праздника и в честь твоей фамилии». Крепко держит память этот эпизод. Соединил нас Навруз навеки, и товарищ для меня всегда живой.







## Жить в гармонии с природой

**Абубакир НАВРУЗОВ, председатель Центрального совета по делам ветеранов Министерства обороны, полковник в отставке:**



– Навруз – больше, нежели просто праздник. Это начало нового года по восточному календарю, символ благих устремлений.

Почему его так любят? Наверное, за мудрость, пришедшую из глубины веков. За то, что в эту пору природа естественным образом просыпается и начинается новый виток обновления. За прекрасные традиции, которые практически не изменились за многовековую историю.

С древних времен бытует поверье: чем радостнее пройдет Навруз, тем щедрее будет природа. Поэтому льются в этот день национальные песни, танцуют и веселятся люди, дарят друг другу подарки, помогают нуждающимся.

Дух Навруза способствует тому, чтобы мы жили в гармонии с родной землей и природой, пробуждает в сердце каждого человека стремление к созиданию, укреплению согласия и единства в обществе. Народ помнит легенду: в эти дни на землю спускаются ангелы, которые приносят добро и благоденствие, но заходят они лишь в тот дом, где царят мир и согласие. Именно поэтому люди стараются простить друг другу долги и обиды.

Мероприятия, посвященные Наврузу, организуются и в воинских частях и учреждениях Министерства обороны. В них принимают участие военнослужащие, члены их семей, ветераны. Выступают военные оркестры, проводятся соревнования по национальным и массовым видам спорта с учетом традиций и обычаев, а также выставки весенних блюд, конкурсы «Умелые повара», «Праздничный сумаляк» и другие. Накрывается стол для личного состава. Становится доброй традицией вручение ключей от новых квартир военнослужащим по контракту.

Навруз объединяет многонациональное население Узбекистана, помогает окунуться в прошлое, выстраивая духовную связь с предками, которые так же, как и мы, тысячи лет назад отмечали этот чудесный праздник. Являясь источником жизненной энергии, он играет значительную роль в воспитании физически здоровой, интеллектуально развитой, независимо мыслящей, преданной Родине молодежи.



## Так «сработал» орешек !

**Рустам НАВРУЗОВ, депутат Кенгаша народных депутатов Юнусабадского района г.Ташкента:**

– Сколько себя помню, слышал от дедушки, от отца: «Мы – Наврузовы! Новизна нам фамилией завещана». Сначала не понимал, о какой новизне речь идет. Потом вдруг осенило: она во всем. В усвоенной информации, победе в конкурсе, знакомстве с хорошим человеком...

Учительница по литературе сказала, что о Наврузе писал Фирдоуси, создавший поэму о Рустаме и Сухрабе. Я чуть не загордился. С таким именем и фамилией надо каждое слово обдумывать, каждый поступок.

Когда из моего стаканчика с сумаляком вдруг вынырнул орешек, решил загадать желание на перспективу. К нам в школу как раз депутат приходил, ну я и пожелал: «Хочу быть депутатом, когда вырасту». «Сработал» орешек! Через много лет на выборах в районный Кенгаш я победил. Правда, вспомнил о детской мечте гораздо позже. Когда наступил мой первый Навруз в новом качестве.



Вместо привычных торжеств – изоляция, обострение проблем, связанных с жестким карантином. Работы было много. Выявляли нуждающихся, доставляли социальные пакеты, ободряли словом. Видел, как ждут люди помощи, как важно для них сознавать, что о них помнят, думают.

Тогда же стал донором и убедил последовать моему примеру многих жителей махаллей, оперируя милосердием и человеколюбием как главной миссией Навруза.

Подрастает пятое поколение семьи. Обращаюсь к старшей дочери Камилле и крошечной Софии словами деда и отца: «Мы – Наврузовы! Пусть каждый день приносит что-то новое, полезное».

Для начала решил представить старшей город ее предков – древнюю и вечно молодую Бухару. Нужно знать свои корни. Ведь если б в людях не было этого стремления, мы бы не помнили сейчас о таком чудесном празднике добра, созидания, взаимопомощи, единства, каким из глубокой древности к нам пришел Навруз.

Записала Ольга АЛЕКСАНДРОВА

YOSHLAR OVOZI Молодежь Узбекистана
WWW.YOSHLAROVOZI.UZ YOSHLAROVOZIUZ@MAIL.RU @YOSHLAROVOZIUZ @YOSHLAROVOZI
№ 8 (16414) 2021-YIL 24-MART 7

ГОСТИНАЯ

# ПОДАРИ МНЕ ЧУДО, КУКЛА!



*Кукла на сцене... Рассуждает и танцует, хохочет и плачет, грустит и мечтает. Она живая! Маленький зритель ловит каждое ее движение, верит каждому слову, потому что невидимые нити доброты и счастья связывают его с забавной актрисой или актером.*

*О том, как важна эта связь, мы беседуем с режиссером-постановщиком Узбекского национального театра кукол Динарой Юлдашевой.*

**– Как вы оцениваете роль кукольного театра в воспитании подрастающего поколения? Наверняка замечали особый подъем, блеск в глазах у ребят, которые выходят из зрительного зала.**

– Недаром театр называют волшебным миром. Он закладывает основы эстетического вкуса, дает первые уроки нравственности, показывает противостояние добра и зла. Конечно же, формирует понятие о человеческих ценностях. Значение театра как синтеза искусств огромно: здесь юные зрители знакомятся с элементами архитектуры, декорациями, скульптурой, музыкой, актерским мастерством. Усваивают правила поведения в общественных местах. Целый свод полезных вещей – и все в одном месте!

Надо отметить, что театр кукол родился не для детей. На площадях, ярмарках, базарах с помощью этих необычных актеров поднимались самые злободневные проблемы. Стараемся играть не только для малышей (а это делаем только мы, к примеру, репертуар ТЮЗа ориентирован на школьников) – пытаемся охватить все категории (дошкольники, учащиеся и взрослые).



**– Начало работы над постановкой – важный этап. Чем руководствуетесь, готовя зрителю очередную встречу с прекрасным?**

– При выборе репертуара анализируем, для какого возраста у нас спектаклей меньше, и восстанавливаем равновесие. Есть постановки стационарные и выездные. Естественно, у стационарных больше технических возможностей. На выезде, скажем, в детские сады или школы несколько упрощаем представления, поскольку там другие условия.

Если говорить о режиссере, он выбирает те пьесы, которые его трогают. Классики море, и все просится на сцену. Казалось бы, бери и дерзай. Однако надо гореть и зажигать других, чтобы постановка получилась удачной, захватывающей, интересной. Подход к классике без учета современности не даст эффекта: важно, чтобы сегодняшние дети не воспринимали ее как архаику, а видели актуальность темы. Главное для режиссера – определить, что именно он скажет спектаклем, как его работа поможет в формировании личности. Нужно донести свою идею до актеров, вдохновить художников, композиторов. Есть художественный совет театра, который надо убедить в правомерности решения, в актуальности звучания произведения, необходимости его сценического воплощения.

Когда написала пьесу по сказке Андерсена «Девочка со спичками», некоторые были против трагической концовки, хотя я сделала более мягкий вариант: героиня улетает. Главный аргумент худсовета – «Детям нельзя такое показывать!» Настояла: «Если не будет этого конца, не будет спектакля!» Поставила в 2002 году. Потом беседовали с ребятами. Они говорили: «Девочка счастлива. Она же улетела на небо, к маме». Были претензии со стороны зрителей: «Зачем такое ставите? Мои дочки плакали!» Ответила: «Радуйтесь! Ваши девочки могут сопереживать, сострадать». Действительно, на спектакле плакали и дети и взрослые. Однако это отнюдь не означает, что таких постановок не должно быть. Мы доказали: театру кукол не чужда трагедия. Ведь долгое время его жанрами считались только комедия и фарс.

**– Спектакль по Андерсену вызвал претензии из-за глубины эмоционального воздействия. Часто ли случается подобное и родители обращаются с пожеланиями или критикуют режиссерский подход?**

– Обычно слышишь восторженные отклики: «Прекрасно! Чудесно! Классно! Здорово!», а хочется конкретных отзывов, пусть даже критических. Ведь именно они указывают на ошибку или недоработку. Понимаешь, что нужно изменить, добавить, в каком направлении идти. Конечно, читать или слышать приятное лестно, однако совершенствуемся мы не на дифирамбах, а на серьезных суждениях.

**– Как действует на ребенка энергетический заряд, передаваемый от кукол, и как пополняется ваша необычная труппа?**

– Удивительно. Однажды на представление пришла девочка. Тихо вытащила из сумки куклу, поставила на соседнее кресло и стала показывать ей происходящее на сцене. Малышка хотела, чтобы кукла тоже видела спектакль. Перед нами ребенок, который верит: куклы – живые существа.

Их магия действует не только на детей, но и на взрослых. Критики, анализировавшие спектакль «Тень» по Евгению Шварцу, отметили богатые эмоции кукол, это было высшей похвалой. Ведь, по сути, кукла – мертвая маска, о каких эмоциях может идти речь?! Такое определение от неспециалиста воспринимается естественно, но в устах критика, знающего нашу специфику, – лучшая оценка игры актеров.

Очарованные маленькие зрители стремятся за кулисы, чтобы поближе познакомиться со своими любимцами, погладить их, потрогать, просят продолжения и не хотят уходить. Кто-то даже плачет: «Хочу еще!»

Атмосфера театра благотворно влияет на его коллектив: сотрудники всегда остаются молодыми в душе. Когда человек приходит со стороны и присутствует на репетиции спектакля, он удивляется: актеры ведут себя очень по-детски, наивно. По-другому нельзя. Мальчики и девочки быстро распознают фальшь, но они и самая благодарная публика. Реагирующая сердцем. Сразу определишь, по душе ли спектакль, потому что с удовольствием повторяют реплики героев. Если вдруг понравилась мелодия, выходят напевая.

Что касается пополнения кукольной труппы, у нас есть свои цеха – бутафорский, кукольный и столярный, где изготавливаются декорации, реквизит. На куклу уходит неделя. Когда лепится форма из папье-маше, она должна высохнуть. Потом ее соединяют, шкурят, заливают, расписывают – отработанный процесс. Похожих не бывает: как и любой актер, это «товар» штучный.



**– Есть кукла, которая особым образом действует на вас?**

– Могу только сказать, что дебют – всегда самое сильное чувство. Потому что это твоя первая самостоятельная работа. Моим режиссерским стартом стала «Девочка со спичками», поэтому, конечно, трепетно отношусь к этой кукле. Она мне очень дорога, как и сказка из детства, над которой пролила немало слез.

**– Дебют, который быстро приобрел известность и у нас в стране, и за рубежом. А почему вы остановили выбор именно на кукольном театре и решили стать режиссером?**

– Пришла сюда на новогоднее представление с младшим сыном. 32 года назад. И услышала: «Динара, ты должна работать здесь!» Пригласили на должность заведующего литературной частью. Честно говоря, не понимала, почему именно я и почему должна. В то время как раз устроилась в Институт искусствознания – в перспективе была диссертация. Долго думала, прежде чем принять предложение.

Поначалу пришлось нелегко: специфика кукольного театра отличается от обычного драматического. Потом втянулась. Написала пьесу «Караван-сарай» к одноименному короткому спектаклю. Первый опыт оказался удачным. Съездила на Образцовский фестиваль в Москву и скромненько предложила другую свою пьесу. Там одобрили. В Ташкенте никто из режиссеров не загорелся моей идеей. Оставался один выход – поставить самой. Рискнула – и заявила о себе как о режиссере. По специальности, обозначенной в дипломе, театровед. Окончила Ташкентский театрально-художественный институт имени Островского (сейчас Государственный институт искусства и культуры Узбекистана).

**– Значит, куклы победили диссертацию и научную степень?**

– Она тоже не пропала даром, вооружив опытом. Исследовала взаимодействие сцены и зала. Вела дневники, где записывала каждую реакцию аудитории. Есть места, где дети шумят. Если это повторяется из раза в раз, значит, сцена либо слишком затянутая, либо непонятная, либо неинтересная. Следовательно, надо реагировать и исправлять. И, наоборот, смех, аплодисменты говорят, что создатели попали в самое сердце.

Подросток сможет сформулировать мнение о постановке, малыш вряд ли с этим справится. Пользуемся другой методикой. Нужно собрать детей и попросить нарисовать спектакль – они, конечно, изобразят понравившуюся сцену. Немаловажно и какими красками передадут свое восприятие – радужными или серыми.

**– У вас практикуются встречи с юными зрителями?**

– Во-первых, перед спектаклем педагог говорит, как нужно вести себя в театре. Помогает ребятам настроиться на спектакль, представляет небольшую аннотацию. Не пересказывает, а направляет, облегчая понимание. К примеру, перед «Кашмирской легендой» поясняет, что в Индии предвестником весны является нарцисс, поэтому главную героиню зовут Наргис. Если смотрят «Веселый балаганчик» – краткое повествование о площадных театрах с Качал Палваном и Петрушкой.

Выезжая в школы, оздоровительные лагеря, не только показываем представление, но и беседуем.

Недавно были гости из Кыргызстана. Отличники учебы, эрудиты. Задавали много вопросов. Их интересовали не только сюжетные линии спектаклей, но и как это делается. Кстати, не все секреты раскрываем, чтобы ощущение волшебства не пропадало.

**– Мастер-классы устраиваете?**

– Обязательно. Приуроченные к Наврузу и Международному дню кукольника. Два таких теплых праздника выпали на 21 марта. Во время мастер-классов по художественному оформлению выносят полную арбу предметов, использующихся в спектаклях. Художники-бутафоры рассказывают детям, из чего и как это делается, что такое папье-маше. Ребят интересуют подробности. Например, почему плов на лягане выглядит как настоящий. В спектакле «Таинственное похищение» виноград, груши, яблоки, самса сделаны настолько искусно, что рука сама к ним тянется.

Мастер-класс по виду кукол. Дети знакомятся с тростевыми, перчаточными, планшетными, марионетками. Под музыку их приводят в действие.

Делаем заготовки для перчаточных кукол. Устраивается своеобразная мини-мастерская. Ребята разрисовывают лица, приклеивают волосы из ниток, пришивают пуговицы. Устанавливают ширму, где любой может провести импровизированное представление. С одной стороны, юные зрители знакомятся с изготовлением перчаточных кукол, с другой – становятся актерами и авторами спектаклей.





**– А каким будет празднование Навруза?**

– Честно говоря, из-за совпадения даты Международный день кукольника несколько отходит на второй план. Однако это сочетание два в одном прибавляет волшебства весеннему Новому году. Четвертый год у нас в театре проходит концерт «Бахорой и Навруз», отражающий традиции праздника. Такой яркий, веселый, что юные зрители начинают танцевать в проходах.

Организуются выставки детского рисунка, эскизов, элементов декораций, костюмов.

**– Даря радость детям и взрослым, нельзя забывать о зрителях с особыми нуждами...**

– Проводим бесплатные спектакли для домов «Мехрибонлик», интернатов. У театра давняя дружба с детским туберкулезным диспансером.

Для слабовидящих устраивали представления с тифлокомментированием. Спектакль «Ох уж этот Ходжа Насреддин» в прошлом году комментировала Юлия Андриевич, приглашенный специалист из Москвы. «Как баба Маша пекла Колобок» – Ирина Безрукова. Она тепло отозвалась о нашем театре в соцсетях. К сожалению, своих тифлокомментаторов у нас пока нет, но стараемся приобщить к доброму искусству и детей, которые не могут видеть происходящего на сцене.

Есть пандусы для тех, кто передвигается на колясках. Один такой зритель отличался редким постоянством, в течение нескольких лет посещая спектакли.

**– Не заскучали куклы на карантине?**

– Работали в режиме онлайн. Интересная практика. Поставили спектакль «Кошкин дом» на узбекском и русском языках. В таком же формате прошел республиканский фестиваль кукольных театров. Репетиции проводили в Zoom. И куклам скучно не было. Они получили прекрасный подарок к 80-летию театра и обживали свой капитально отремонтированный дворец.

**– Сколько спектаклей в вашем репертуаре? Как идет обновление?**

– Спектаклей 38. Есть новогодние, которые повторяются только через два-три сезона. Основной костяк – 34–35. На постановку дается три месяца. По плану их четыре в году. Правда, нынешний более напряженный: целых шесть. Полным ходом идут репетиции «Семи планет» – спектакля, посвященного юбилею Алишера Навои.

**– А какие проблемы в царстве сказки и волшебства?**

– До недавнего времени их было много, но они ушли с капитальным ремонтом. О них и вспоминать не хочется. Считаю, что главная проблема – реклама. Нужен хороший менеджер, который станет этим заниматься. Мы недавно переехали в обновленное здание, еще не успели подготовить красочные афиши. Надеемся, в скором времени на улице появится монитор, где будем показывать ролики, привлекая зрителей.



Раньше была большая проблема с актерскими кадрами, а теперь их готовит Государственный институт искусства и культуры Узбекистана. К нам приходит молодежь, в том числе юноши. Было время, когда испытывали острый дефицит в актерах-мужчинах.

В институте есть профильная кафедра. С 2021/2022 учебного года в соответствии с постановлением Кабинета Министров открывается направление «Технология изготовления кукол». В вузе можно будет осваивать заочно режиссерское и актерское дело, драматургию кукольного театра. В Национальном институте художеств и дизайна имени Камолиддина Бехзода станут адресно готовить художников, чему мы очень рады. Когда приходят обычные мастера, они ничего не знают о специфике работы в кукольном театре. С особенностями профессии знакомятся здесь. Беда еще и в том, что без сожаления уходят, подыскав более «интересное» с материальной точки зрения место....

**– Зарубежный зритель тоже подпал под обаяние нашего театра кукол? Как проходят гастроли?**

– Можем похвастаться историей зарубежных гастролей, которые в Узбекистане начал именно наш театр. Старт положен в 70-е годы XX века. Первые поездки в Бирму и Афганистан, потом Индия, Пакистан, Турция, Франция, Германия, Египет, США, другие страны. Причем играем на языке принимающей стороны, поэтому трудностей в понимании не наблюдается. На такие гастроли лучше брать спектакли без текстов, основанные на пластике. Тогда легче. Когда есть текст, актерам приходится дополнительно потрудиться с педагогами в течение месяца, отрабатывая реплики. Как по-другому, если предстоит играть на урду, хинди, арабском или немецком языке?!

С развитием театрального искусства стали выезжать реже. Подключились другие коллективы. Понятно, что международные контакты последнего года «подкорректировала» пандемия, могли взаимодействовать лишь онлайн.

В 2018 году были в Москве с «Тенью». Открывали IX Международный фестиваль имени Образцова. До этого посетили ближнее зарубежье – Кыргызстан, Казахстан. В свое время объездили много городов России. «Девочку со спичками» показывали в Москве, и там нас отобрали на международный фестиваль «Арт-визит» в Краснодаре. Тоже удостоились чести открыть мероприятие. Это говорит об уровне нашей кукольной театральной школы.

**– Интересно узнать о степени подготовленности молодых актеров, которые приходят к вам непосредственно после окончания института. Их нужно доучивать?**

– В вузе они получают теоретические знания, но условий познакомиться с разными видами кукол нет. Знают тростевую, перчаточную, а здесь в процессе работы доучиваются. Молодежь составляет где-то процентов восемьдесят от всего коллектива. Развито движение «устоз – шогирд». Становление молодых курируют заслуженные артисты. Мастера сцены передают опыт ученикам.



**– Какое место занимает театр в вашем сердце?**

– Отвечу известной фразой о счастливом человеке: «Он с радостью идет на работу и с радостью возвращается с работы». Для меня театр – второй дом, моя семья, творческая. Не представляю, что когда-то сяду на лавочку и забуду о деле, которому посвятила жизнь. В этом году отмечаю юбилей: пришла в кукольный театр 6 февраля 1991 года. Не жалею об оставленной научной работе, потому что нашла себя в творчестве.

Свои спектакли смотрю всегда, оставляю актеров и тут же делаю замечания. Полезно и для них, и для меня. Когда режиссер не следит, постановка может измениться до неузнаваемости. К примеру, публика хорошо реагирует на определенные сцены – актер начинает проявлять гиперстарание, что не всегда на пользу. Да, мы следим за приоритетами зрителей, но не должны идти на поводу. Наша задача – быть на два шага впереди.

**– Вы патриот своего храма доброго искусства. А есть ли у вас что-то любимое в репертуарах зарубежных театров?**

– «Необыкновенный концерт» Сергея Образцова. Он действительно необыкновенный, потому что живет столько лет. До сих пор его любят, с таким интересом играют. Хочется сделать нечто похожее. Не в смысле темы. Похожее по долговечности, свежести восприятия, актуальности.

**– Значит, живет в сердце творческая мечта...**

– Их много. Запланирована постановка «Маленькие трагедии». Чтобы в очередной раз доказать: кукольный театр должен включать в репертуар спектакли для взрослых. Возможности его необъятны. Многие сцены представляю себе ясно, особенно эпизоды из «Скупого рыцаря». Постепенно из деталей вырастает объемная картина.

А еще в планах – «Маленький принц», «Принцесса Турандот», «Оскар и розовая дама», японская сказка «Журавлиные перья»...

**– Что бы вы пожелали ребятам и их родителям?**

– Чтобы мамы и папы всегда находили время для своих детей, водили в музеи, театры, парки, читали с ними книги. Занимались всем, что дает пищу для общения, для полезной беседы. Обсуждение культурных мероприятий сближает. Тогда, видя рядом духовно близкого человека, ребенок захочет доверить свои секреты отцу или матери.

Детям пожелаю не искать выгоды, как это принято у многих представителей подрастающего поколения, сиюминутного дешевого интереса. Искренне хочется, чтобы они подняли головы от гаджетов и увидели, как прекрасен мир. Конечно, чтобы приходили в театр, потому что это незаменимое живое искусство. Мы будем только рады, если сможем помочь родителям воспитывать детей, а детям формироваться как гармоничная личность.

**Беседовала
Людмила ПОЛОНСКАЯ**

ПРАЗДНУЕТ ВСЯ СТРАНА

# В Навруз дома не усидишь!



***Спросите любого узбекистанца о самых любимых праздниках. И чаще всего услышите в ответ: «Навруз». Почему он так дорог и коренным жителям, и гостям нашей республики?***

Навруз в Узбекистане – праздник весны, добра и справедливости. А еще это символ национального единения, ведь весенний Новый год отмечают все граждане республики независимо от этнической принадлежности и вероисповедания.

Традиция встречать день весеннего равноденствия зародилась в Хорасане (северо-восток Ирана) более трех тысяч лет назад и со временем распространилась в соседних государствах Передней и Центральной Азии. До нас дошли самобытные ритуалы и красочные обряды, наполненные глубоким смыслом.





В эти дни принято прощать даже злейших врагов, не ссориться, помогать нуждающимся. Люди верят, что благие помыслы и поступки приносят в дом удачу, благополучие. Еще одной доброй приметой считается богато накрытый дастархан. Хозяйки готовят особые пирожки с зеленью, нишалду (сладкий десерт из яичных белков, взбитых с сахаром и душистыми кореньями трав), пекут слоеную самсу, в котлах дымится ароматный плов. Стол буквально ломится от лакомств!

В Навруз дома не усидишь! Особенно интересны народные гулянья в кишлаках, где устраивают традиционные состязания купкари, борьбу джигитов, конные турниры. На праздничных ярмарках можно купить все: от сувениров до ароматной выпечки.

Жители махалли «Олимлар» считают: совместная работа по благоустройству – лучший способ содержать в порядке наш общий дом. Недавно здесь состоялся большой хашар, во время которого высажено более девяти тысяч молодых деревьев, цветы. Приведены в порядок дороги, очищены арыки. Красота, да и только!

Если возникает необходимость в благоустройстве, проведении спортивных турниров, детских праздников, свадеб, председатель родительского комитета школы №16 Мирза Эшматов и местные жители вносят посильный вклад в общее дело. Например, предприниматель Дияр Базаров постоянно помогает больным людям. К нему не надо обращаться с просьбой – он сам предлагает помощь. Совсем недавно 25 семей получили от него в подарок одежду и спортивную форму.

Навруз в махалле по традиции встречают все вместе. Готовится не только угощение, но и концертная программа, спортивные состязания. Есть среди учащихся исполнители народных песен и танцев, молодые поэты, признанные палваны. Одним словом, в сходе граждан "Олимлар" привыкли хорошо работать и так же дружно отдыхать.

**Робия ШАРИПОВА,**
**учитель школы №16**
**Галляаральского района**
**Джизакской области**

## Знаете ли вы, что...

*● Праздник Навруз был известен уже в VI–IV веках до н.э. Упоминания о нем можно встретить у древнегреческих авторов. Весенний Новый год они называют Патрих.*

*● Считается, что Навруз был первым днем мироздания. Именно в этот день во Вселенной возник свет.*

*● Говорят, если вспыльчивый человек отведает в день весеннего равноденствия простокваши, его характер уравновесится. Если склонный к меланхолии выпьет молока, обретет бодрость.*

*● По традиции главное угощение – сумаляк готовят только женщины, а мясные блюда (халим и гуджа) – мужчины.*

*● Ранее большое значение придавалось тому, кто первый войдет в дом после наступления Навруза. Считалось, что если это человек вспыльчивый, с тяжелым характером, то и год выдастся тяжелым, если меланхолик – жди печалей, а если гость добрый и веселый, то и год будет таким же.*

*● Есть старинное поверье: человек целый год будет делать то, чем занимался в первые две недели Навруза. В эти дни старались ни с кем не советоваться (чтобы впоследствии не жить «чужим умом») и не ссориться, прощали долги.*

*● Благоприятный знак – дождь в первый день Навруза.*

*● Беруни пишет, что в Согде за 25 дней до наступления Навруза ставили семь колонн из сырцового кирпича, на которые устанавливали глиняные чаши с землей. В них проращивали семь видов зерновых культур. Существовала примета: зерно, давшее всходы раньше других, обещает самый богатый урожай в новом году.*

*В других старинных источниках говорится о 12 видах съедобных растений, которые согдийцы проращивали накануне Навруза.*

**Подготовила Ольга ЛИДИНА**

*Их породнила весна*

## Слово за слово

Хорошее время года... От древнеиндийского **vasantas** образовалось русское слово **«весна»**. Ведь **vasu** означает **«хороший»**. Кстати, от той же основы в литовском языке слово «лето». Видимо, дождливый климат породил другое представление о хорошем времени года.

Весна. Все оживает, расцветает, просыпается. Приходит к людям веселье праздника пробуждения земли. Вовсе не случайно сроднились **«весна»** и **«веселый»** (первоначально **«хороший»**), порожденные ярким солнцем.

И в слове **«яркий»** – отзвуки весны. Произошло от индоевропейской основы **ier** – **«год, весна»** и сначала значило **«теплый, весенний, горячий»**. Потом уже приобрело значение **«искрящийся, ясный»**. А тут еще суффикс -ък- прибавили для различия от «ярый» – «горячий, гневный».

Вовсе не случайно **яровой** называют пшеницу, посеянную под зиму и созревающую летом. Только сойдет снег – и дружно зеленеют поля, разбуженные весной.



«Весна» Сандро Боттичелли (фрагмент)

ЭХО ВЕКОВ

# Чудодейственный сумаляк

Некогда осадили враги могучую пограничную крепость на берегу Джейхуна (Амударья). Стойко держались ее защитники, но настало время, и иссякли в городе припасы.



Наконец пришлось вынуть из кладовых последние мешки с пшеницей, уже отсыревшей и проросшей, так как лежала она в самых дальних углах. Сварили это последнее зерно защитники крепости, и получилось не виданное ими блюдо: золотисто-коричневое и приятное на вкус. Когда же воины его отведали, ощутили такой прилив сил, что в едином порыве отбили врага и отогнали далеко за пределы своих владений.

Надолго в здешних краях воцарился мир, а жители города-крепости взяли за правило каждый год варить удивительную еду из проросшей пшеницы, которую нарекли сумаляком.

**Лобар МИРЗАЕВА**



# FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI JAMOASI

*Ayni chog' butun borliqda Navro'z shukuhi kezib yuribdi. Xalqimiz shukronalar aytib, Yaratgandan yurtimizga tinchlik-xotirjamlik, to'kin-sochinlik so'rab, duoga qo'l ochmoqda.*

*Shu fursatdan foydalanib, butun xalqimizni, shu jumladan, barcha o'qituvchi-pedagoglar va talaba-yoshlarimizni bahor ayyomi bilan tabriklaymiz! Fasli navbahor qalbingizga xushkayfiyat baxsh etib, el-yurtimiz rivoji yo'lidagi barcha ishlaringizda omad yor bo'lsin!*



®




# Navro'z bayramingiz qutlug' bo'lsin!

**Aziz yurtdoshlar, sizlarni yasharish va yangilanish ayyomi bilan samimiy muborakbod etamiz! El-yurtimiz doimo tinch, dasturxonlarimiz to'kin bo'lsin! Yaratgandan dehqon-u bog'bonlarimiz hosiliga baraka berib, har kuningiz Navro'zdek quvonchli o'tishini tilab qolamiz!**

## Andijon viloyatidagi «BARLOS» mini klasteri jamoasi




R

KO'NGIL KENGLIKLARIDA




# Bahorning boshlanishi

Qishning bahorga talosh kunlarida qishloq ayollari sovuq shamolga chap berib, uyning oftobro' tomonida devorga suyanib chuvoqlab o'tiradi. Ularning ba'zisi paxta chigitlasa, boshqasi urchiq yigiradi. Ayollarning yonida olaquroq qilib bo'yalgan po'stakda g'ujanak tushib yotgan bola esa ko'zini yumib, quyoshga qaraydi. Qovoq pardasi quyosh nurida qip-qizil bo'lib ko'rinadi va ayni damda ko'z oldida xuddi shu rangdagi turli chiziqchalar paydo bo'ladi. Bola son-sanoqsiz chiziqchalar va nuqtalar orasidan shakl izlay boshlaydi. Keyin bu chiziqchalar juda tez harakatlanadi va bola o'zini mashinaning old o'rindig'ida ketyotganday his etadi. Ayni chog' urchiq yigirayotgan ayol qo'lini baland ko'tarib quyoshni to'sib qo'yadi. "Ekanomchi" "mantyor"lar chiroqni o'chirib qo'yganiday, bolaning ko'z oldidagi tomosha birdan g'oyib bo'ladi. Dunyo qorong'i bo'lib qoladi. Oftobro'da taniga ingan iliqlikdan rohatlanib yotgan bola ko'zini ochishga ham erinib, biroz ortga tisarilib yotadi. Endi uning oyog'i uyning burchak devoridan nari o'tadi.

Ayollar uyning janub tomonida quyoshga qarab, chuvoqlab o'tirgan bu paytda, shimol tomondan sovuqqina shabada tinimsiz esib turadi. Shabada uy devoriga urilib, uning ikki yonidan aylanib o'tib yo'lida davom etadi. Bolakay ham ana shu shamolpana chuvoqda tanini oftobda toblab o'tira-o'tira yotib olgan. Endi devordan nariga chiqqan oyog'i o'sha sovuq shamolni his etadi. Ayni chog' qish, qo'li muzlab qor kuragani yodiga tushadi. Bola oyog'ini shamolpanaga tortgan payt onasi: "Sumalakning ikki yo uch kunligi bor. Bugun ko'rganimda yaxshigina nish otibdi", deydi. Sumalak daragini eshitgan bola boshini ilkis ko'tarib: "Ena, sumalakni qachon qaynatamiz?" – deydi. Savoliga javob olgan bola endi uyning burchagida joylashib o'tiradi-da, qo'lini cho'zadi. Boyagi shamol bir zumda qo'lini yaxlatib yuboradi. Keyin shamolpanaga o'tgan barmoqlari quyoshda rohatlanadi. Bola esa o'zini qish va bahorning chegarasida o'tirganday his etadi.

* * *

– Ha, bunday turibsiz?

Savol egasiga qarab ortimga o'girilaman. Hamkasbim zinada turib boyagi savolni takrorlaydi.

– Chuvoqlab turibman.

– Nima?!

Endi ovozimni bir parda balandlatib so'zimni takrorlayman. Nizom baribir tushunmaydi. Bu yoqqa keling, deganday qo'lim bilan ishora qilaman. U zinadan tushib, aylanib yonimga keladi. Shundagina unga "chuvoqlab" degan so'zni izohlashim kerakligini bilaman. Boya uning savoliga javob berayotib bu so'zni hamma ham bilavermasligini xayolimga ham keltirmagan ekanman. Nizom bahorni sog'ingan odamlar chuvoqlab o'tirishini eshitib, og'irgina xo'rsinib qo'yadi. Men, u ham bolaligini, o'z bahorini esladi, degan xayolga boraman. Keyin ikkimiz bahor, sumalak va Navro'z haqida suhbatlashib ketamiz.

* * *

Bahor va sumalakni bir-biridan ayro aytib bo'lmaydi. Bolaligimda bahor biz sumalak qaynatgan kunimizdan boshlanardi, go'yo. O'sha kuni qo'ni-qo'shnilar jam bo'lar, qancha vaqtdan buyon bir-birini ko'rmagan qo'shnilar topishib, tongotar gurung bo'lardi. Ayniqsa, biz bolalar sumalakka hissamiz qo'shilishidan quvonib, o'tinga talashganimiz qancha-yu, chelaklab suv tashiyverib butimiz jiqqa ho'l bo'lgani qancha. Bu yumushlardan bo'shab, o'yinga berilib ketishimiz... chillak, quvlashmachoq... Qorong'i tushgach esa bekinmachoq o'yini yakuniga yetmay, oshxona yoki o'choq boshida uxlab qolganlarimiz... Bularning bari ko'z o'ngimdan kino lentasiday birma-bir o'tadi. Ayniqsa, qaysidir qo'shnilar orasidan "olamushuk" o'tgan bo'lsa boshqalar: "Azizlarning taomida tumshuq turib yurmanglar", – deb yarashtirib qo'yishi. Boshqa payt qancha qistov bilan ham bitmagan bu ish sumalak va bahor sabab bir og'iz gap ila yechimini topishi. Ehtimol, shu sabab odamlar boshqa fasllarga qaraganda bahorni o'zgacha orziqish bilan kutar?!

Bunday sumalak sayllari doim Navro'zga ulanib ketadi. Bolaligimda Navro'zni ham o'zgacha kutib olardik. Birgina men o'qigan maktabda bo'ladigan bayram chinakam saylga aylanardi. Bayramga qatnashadigan hamma o'quvchi milliy libos kiyar edi. Musobaqa tarzida hozirlik ko'rgan o'quvchilar bir-birlarini ortda qoldirish uchun Navro'zga daxldor neki bo'lsa o'sha yerda namoyish etishga urinardi. Shu sabab bayramning asosiy qismi don sepish, bug'doy yanchish, sumalak qaynatish va yomg'ir chaqirish kabi marosimlarda aytiladigan qo'shiq va laparlar bilan o'tardi. Bu aytimlar shunchaki kuylanmas, bil'aks sahna ko'rinishi ila to'ldirilardi. Bir safar yerni omoch bilan ag'darishni ko'rsatish uchun kimdir uyidan buqa yetaklab kelgan, sahnada echki sog'ib ko'rsatgan edi. Ertalabdan to kechgacha davom etadigan bu bayramda nafaqat maktab o'qituvchisi-yu o'quvchilari, balki butun mahalla jam bo'lardi. Bolaligimni eslasam, ko'z oldimga Navro'z, sumalak va bir-biriga mehr ila munosabatda bo'layotgan mahalladoshlarim keladi...

* * *

Boshqa fasllarni yaxshi ko'rganimiz holda bahorni o'zgacha intiqlik bilan kutamiz. Sharqona taqvim bilan aytganda xut oyi kelishi bilan inson tabiatga talpina boshlaydi. Umrida ketmon ushlamaydigan kishi ham yer ag'dargisi yoki yam-yashil qirga chiqqisi keladi. Hatto shaharda tug'ilib umri baland binolar orasida o'tayotgan hamyurtlar ham hashar bahona hech bo'lmaganda yon-atrofni tozalab, daraxtlarni oqlashga bel bog'laydi. Qizig'i, bu yumushlarni hamma o'z inon-ixtiyori bilan bajaradi. Nega shunday ekan-a?!

Tabiatda bahor epkini esa boshlashi bilan yashil giyoh borki, ildiz otadi. U mitti va nozik jussasi bilan zilday tuproqni yorib chiqadi. Uning shijoatini inson aqlan mushohada qilarkan, mitti maysaning jasoratiga tan beradi.

Xuddi shuningdek inson ham qorong'i qish kechalari qisqarib borgani sari bahorga ehtiyoj sezadi. Ana shu ehtiyoj – yashillikka yetish istagi uning qo'liga ketmon tutqazadi. Anchadan buyon xasta yotgan birodarining holidan xabar olishga undaydi. Bemorning ko'ngliga yorug'lik, hayotga intilish beradi. Bir so'z bilan aytganda, insonni insonga yanada yaqinlashtiradi. Buning barchasi donning tuproqni yorib chiqishdagi jarayoniga o'xshaydi. Inson ham o'zi bilmagani holda, quyosh va yomg'irga – yorug' xayollar ila tiniq tuyg'ularga talpinib yashaydi. Bu istakning eng yuksak cho'qqisi esa, Navro'z bilan tutashib ketadi. Nazarimda, aynan shuning uchun biz bahorni ayricha yaxshi ko'ramiz. Holbuki, maysadek unmoqlik shijoati bizga yana bir yil UMR hadya etadi.

* * *

Shaharda yashayotgan odam ko'pincha bahor kelganini kech payqaydi. Shu sabablimi, hamkasb do'stlarim mart oyi kelishi bilan bir-birlarini bahor bilan qutlashga tushganda uncha ahamiyat bermagandim. Negaki, bahorni hech qachon taqvimga qarab kutib olmaganman. Ammo oradan biror hafta o'tmay ishxonada o'tirib sovuq yeganimni his etdim va oftobro'ga chiqdim. Hamkasb do'stim Nizom bahona bahor haqida mulohaza yuritar ekanman bir haqiqatni angladim: BAHOR uyimizning janub tomonidagi oftobro'dan boshlanar ekan.

**Bobo RAVSHAN**



Shavkat RAHMON

## Hamal

**Erib bitdi poyonsiz qorlar,
yana ko'hna zamin tulladi.
Vodiydagi ulkan o'riklar
bir kechada oppoq gulladi.
Oq bulutlar yerga qo'ndimi,
mo'jizalar bo'ldimi sodir?
Oh, naqadar ajoyib tunda
oq mash'ala ekilgan vodiy.
Endi safsar kechalarda oq
mash'alalar tutib, ulug'vor
kengliklarda kezar chiroyli
kunduzlarni axtarib bahor.**

* * *

## "Yulduzlarga tegadi boshing"

**Kunlar pisha boshlaydi yana,
ranglarini boshingda elar,
Xayolingni chaqmoqlar kabi
yoritguvchi lahzalar kelar.
Yana yaproq yozgan daraxtga,
atirgulga do'narsan nuqul.
Kechalari chap ko'kragingda
qafasini sindirar bulbul.
Bor qadarni yengmoqqa yana
yetib ortib qolar bardoshing.
Endi o'zing istamasang ham
yulduzlarga tegadi boshing.**



# Mehr nuri teng tushar vayron-u obod ustina ...

*"Feruz" kuyi bilan kuylanadigan "Ustina" radifli g'azali Ogahiy devonining eng mashhur shoh baytlaridan biridir. G'azalning matlasidanoq, shoir sizni cheksiz hayrat olamiga boshlab kiradi. Go'zal tashbehlardan lol qolasiz.*

**Mushkin qoshining hay'ati**
**ul chashmi jallod ustina,**
**Qatlim uchun "nas" keltirur**
**"nun" eltibon "sod" ustina.**

Bu baytda shoir ma'shuqaning chashmi ya'ni ko'zi jon oluvchi, halok etuvchi deya ta'riflanadi. Qora qoshining ko'rinishi "sod"ning ustiga "nun" eltgan yanglig' "nas" keltiryapti, demoqchi.

Arab alifbosida "nun" harfini shoir aytganidek, "sod" ustiga eltib xat qilsak, ularni qo'shib yozsak, "nas" so'zi hosil bo'ladi. Bu arabchada "hukm" degani. Hukm ya'ni qatl uchun qarorni jallod ko'z ustidagi "mushkin qoshining hay'ati" chiqaryapti.

E'tibor bersangiz, ko'z ustidagi ikki qoshning bir-biriga egilib turishi go'yo hay'at a'zolarining bir to'xtamga kelish oldidan kengashayotganiga o'xshaydi. Shoir yor qoshini "mushk" — qora rangli va xushbo'y hidli modda deb ta'riflashiga sabab, qoshining qoraligi va hukm chiqaruvchilar ko'p hollarda qora rang kiyganidir. Jallodlar — ko'zlar pastda, hukm chiqaruvchilar tepada. Bu tashbeh ham juda chiroyli.

Ogahiy so'z aytishda fikrini o'ziga xos tarzda ifoda etadi. So'z va harf o'yinlaridan mahorat bilan foydalangan. Agar "nun"ni "sod" ustiga teskari joylasangiz, ko'z shakli hosil bo'ladi. Bunda Ogahiy hazratlarining imloviy musavvirligini ham ko'rish mumkin.

Ranglar orqali mo'yqalam bilan surat chizish bor gap. Lekin mukammal, ma'no uyg'unligidagi harfiy musavvirlik nodir hodisa, kashfiyot.

**Qilg'il tomosho qomati zebosi**
**birla orazin,**
**Gar ko'rmasang gul bo'lganin**
**payvand shamshod ustina**

Ma'shuqaning kelishgan qomatini sarv va shamshod daraxtiga o'xshatish she'riyatda odatiy hol. Lekin Ogahiyning tashbehi o'ziga xos originallikka ega. Tik qaddi shamshod daraxtiga gul payvand qilinganini ko'rganmisiz? Oshiq tarannum etayotgan dilbarning zebo qomati va gulgun chehrasiga nazar soling:

**Nozu adovu g'amzasi qasdim qilurlar dam-badam,**
**Vah, muncha ofatmi bo'lur bir odamizod ustina.**

**Man xastag'a jon asramoq emdi erur dushvorkim,**
**Qotil ko'zi bedod erur har lahza bedod ustina.**

Noz-u karashmalar qasd qilib, qatlga shaylangan ko'z jabr-u zulmni to'xtatgani yo'q. Bu vaziyatda ishq va hijron tufayli xasta oshiqqa jonni omon saqlamoq endi qiyin. Bir odamzodga shuncha ofat bo'ladimi? Ammo bu dard-azobdan ham shoirning sadoqat va vafosi ustuvor, uning irodasini buka olmaydi. Bulbul gul ishqida erta-yu kech navo qilganidek, gul yuzli yorning shavqi ila shaydo ko'ngil ham dod ustiga ming faryod qilsa-da, vasl umidi so'ngan emas.

**Ul gul yuzi shavqi bila shaydo ko'ngil shom-u sahar,**
**Bulbuldek aylar yuz navo ming nav'i faryod ustina.**

**Boshimg'a yoqqan g'am toshin mingdin biricha bo'lmag'ay,**
**Gardun agar ming Besutun yog'dursa Farhod ustina.**

Oshiq chekayotgan azobini afsonaviy Besutun tog'ida Farhod ustiga ming g'am toshini yog'dirganda ham mening boshimga yog'ilgan g'am toshining mingdan biricha ham bo'lolmaydi, deya baholaydi. Bu ofat va sinovlarga chinakam oshiqqina dosh beradi. Husn shohining marhamatidan hali ham umidvorligini bildirib, uni ishq bobida insofga chaqiradi.

G'azalning keyingi baytida g'oyaviy badiiy tasvir baland nuqtaga ko'tariladi. Biz Ogahiy mahoratining yangi qirralarini ko'ramiz. Bu misralarda ham muhabbat tarannumi, shoirning ijtimoiy-siyosiy qarashlari shu qadar uyg'unlashib ketganki, Ogahiy so'z zamirida so'z keltirib, fikr ifoda etishning go'zal namunasini yaratadi:

**Ey shah, karam aylar chog'i**
**teng tut yomon-u yaxshini**
**Kim, mehr nuri teng tushar**
**vayron-u obod ustina.**

Bir qarashda oshiq husn shohi bo'lmish yoriga murojaat etayotgandek tuyulsa-da, aslida to'g'ridan to'g'ri mamlakat shohiga, hukmdorga murojaat qiladi. U olampanohdan himmat chog'i va marhamat bobida yaxshini ham, yomonni ham teng tutishligini so'raydi. Bu borada quyoshga o'xshab, undan ibrat olishini uqtiradi. Chunki quyosh shu'lasini obod-u vayronaga ham birdek sochadi. Bu misralarda xalq boshida turgan turli mansab egalarini insofga chaqirib, adolat bilan ish tutishga chaqiruvchi da'vatlar aks etadi.

**Xoki taning barbod o'lur oxir**
**jahonda necha yil,**
**Sayr et Sulaymondek agar taxting**
**qurib bod ustina.**

Imkoning bormi, himmat ko'rsat, yaxshilik qil, ezgulik urug'ini soch. Yiqilganlarga tirgak, faqir-u g'ariblarga suyanch bo'l. Davlating va qudratingga ishonmagilki, hammasi o'tkinchidir. Xizmatida yuzlab dev va ins-u jinslar hozir-u nozir bo'lib, taxti shamol ustiga qurilgan, dunyoning ko'ngli tusagan yeriga istagan vaqtda bora olish qudratiga ega Sulaymon payg'ambar qani?! Uning kabi sen ham omonatsan. Kishi ezgu ishlari bilangina boqiydir. Bu satrlar faylasuf shoirning faqat badiiy san'atkorligidan emas, balki dunyoviy va diniy ilmlar bilimdoni ekanidan ham dalolat beradi.

**Ne jur'at ila Ogahiy ochg'ay**
**og'iz so'z dergakim,**
**Yuz xayli g'am qilmish hujum**
**ul zoru noshod ustina.**

Yashashdan maqsad, ishq-muhabbat-u uning iztiroblari haqida ko'p va xo'b, ham yuksak badiiy mahorat bilan kuylagan shoir g'azal maqtasida: "Men hali hech narsa aytolmadim, so'z aytishga jur'at topolmadim", — deydi. Bu ulug' shoirning kamtarligidir. Aslida, Ogahiyning buyukligi ham shunda.

G'azal o'ziga xos badiiy ichki qurilmaga ega. Uni hamma har xil tushunadi. Mumtoz asarlarni o'qib-o'rganar ekansiz, ularni o'qigan sayin jimjimador so'zlarning ohori to'kilish o'rniga yangidan yangi ma'nolar bo'y ko'rsatadi. Har o'qiganda bilimingiz oshib boraveradi.

**Fayoz AHMEDOV,**
**Sharqshunoslik universiteti talabasi**

TABOBAT OLAMI



# Tuya suti

***Tuya suti juda mazali va to'yimli mahsulotdir. Sharqda uni azaldan sevib ichishadi. Tuya sutining shifobaxshligi xususida Abu Ali ibn Sino "Tib qonunlari" asarida yozib qoldirgan.***

Tuya suti tarkibida B1, B2 vitaminlari, temir, fosfor, oltingugurt, kalsiy moddalari mo'l. Ayniqsa, C va D vitamini tuya sutida sigir sutiga nisbatan uch barobar ko'p. Sut shakari – kazein va laktoza moddalari esa aksincha — tuya sutida kam miqdorda bo'ladi.

Agar bemorning immuniteti past bo'lsa, har kuni 0,5 litrdan yangi sog'ilgan tuya sutini och qoringa ichib yursin. Keyin 4 soat o'tgach, ovqatlansa bir oy yoki 40 kun o'tgach, o'zida ijobiy o'zgarishni his etadi. Faqat bu davrda bemor achchiq, sho'r, dudlangan va turli konserva muhsulotlari, shuningdek, spirtli ichimliklar, sigaret chekishdan tiyilishi kerak. Chunki parhez sutning shifobaxsh ta'sirini oshiradi.

Dastlab sut bemorning ichini surishi mumkin. Yana qusish ehtimoli ham bor. Bu holatda ham bemor sut ichishni to'xtatmasligi kerak. Organizm bu vaqtda tanadagi ortiqcha xilt (shlak)lar, toksin (zahar)lardan tozalanayotgan bo'ladi. Shunda ham ich ketishi to'xtamasa, tuya sutidan tayyorlangan qatiq ichishi lozim.

Tuya suti tabiiy, toza asal bilan ichilsa, gijjalarni yo'qotib, me'da-ichak tizimidagi yaralarni tuzatadi. Yangi sog'ilgan tuya suti gastrit (me'da shilliq qavati yallig'lanishi)ga davo hisoblanadi. Shuningdek, sil kasalligi va pnevmoniya (zotiljam)da ham tabiblar tuya sutini tavsiya etishadi. Shakar bilan aralashtirib ichilgan tuya suti teri rangini tiniq va chiroyli qiladi, ajinlarni yo'qotadi.

**Shoira BEKCHANOVA,**
**tibbiyot fanlari nomzodi**

**Hurmatli yoshlar!**

"Yoshlar ovozi"-"Молодежь Узбекистана" gazetasi Sizlarni qiynayotgan muammolarni o'rganish hamda ularga yechim topishda yaqindan yordam berish maqsadida **@yoshlar_ovoziga_murojaat_bot** telegram manzilini ishga tushirdi.

YOSHLAR OVOZI Молодежь Узбекистана

MUASSIS:
O'ZBEKISTON YOSHLAR ITTIFOQI MARKAZIY KENGASHI

BOSH MUHARRIR:
Hamza ABDULLAYEV

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan.

MAS'UL KOTIB:
Yelena KALININA
NAVBATCHI MUHARRIR:
Jamshid MUSURMONOV
DIZAYNER:
Zafar RO'ZIYEV

TAHRIRIYAT MANZILI:
100083, Toshkent, Matbuotchilar ko'chasi, 32.
Telefonlar:
(71) 233-22-16.
(71) 236-79-95.

Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida, A-3 formatda chop etildi.
Hajmi – 3 bosma taboq.
**Korxona manzili:** Buyuk Turon ko'chasi, 41.
**Indekslar: 203, 3203**
Bahosi kelishilgan narxda.
Buyurtma G-355
Adadi – 797
**Bosishga topshirish vaqti – 21.00**
**Topshirildi** – 20.02

1 2 3 4 5 6